

YANGI O‘ZBEKISTONNI BUNYOD ETISHDA YOSHLARNING IJTIMOIIY- MA’NAVIY MAS’ULIYATINI OSHIRISH ZARURIYAT



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544691>

Achilova Nilufar Norbutayevna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada yangi O‘zbekistonni bunyod etishda yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyatini oshirish zaruriyati tahlil qilingan. Ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyat insonga jamiyat tomonidan yuklatilgan vazifalarni umuminsoniy va milliy ma’naviy qadriyatlar talablariga tayangan holda inson, elat, millat va xalqlarning tinch-osuda yashashlarini ta’minlashga qaratilgan hatti-harakat ekanligi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyat, Yangi O‘zbekiston, axloqiy qadriyatlar, yoshlar siyosati.*

Insoniyat paydo bo‘lgan davrlardan boshlab doimo yaxshi hayot kechirish uchun kurashib kelgan. Bu kurashning negizida insonning jamiyat oldidagi ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyati yotadi. Bu mas’uliyat har doim yoshlarning jamiyat hayotida o‘z huquq, burchlarini bilish, axloqiy va estetik qadriyatlar, mehnat intizomi normalariga rioya qilish kabilar bilan belgilanib kelingan. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotning tamal toshlaridan biri hisoblangan. Shu sababli mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni bunyod etishda yoshlarning ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyatini har tomonlama rivojlantirish masalaciga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu borada “mas’uliyat” nima degan savol tug‘iladi? “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da:” Mas’uliyat arabcha so‘z bo‘lib – javobgarlik, javob berish, ya’ni biror ish, hatti-harakat orqali, natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik”¹, - degan ma’noni anglatadi degan ta’rif berilgan. Hozirgi davr ijtimoiy fanlarida “mas’uliyat” va “ijtimoiy mas’uliyat” tushunchalari keng qo‘llanilib, ushbu tushunchalarning negizida insonning yon-atrofga, ijtimoiy munosabatlarga, olamni anglashga oid tajribasi, ya’ni faoliyatini anglatish yotadi. “Mas’uliyat so‘zining o‘zagi «mas’ul» - javob beruvchi, javobgar degan ma’nolarni o‘zida ifodalab, mas’uliyat yuklatilgan, vazifa javobgarligi zimmacida bo‘lgan, javobgar ish natijasi uchun bo‘lgan javobgarlik, biror ish xatti-harakatida natijaviy hisobot berishlik hamda mas’uliyatlilik qonuniyatlariga muvofiq qilinadigan hayotiy tajribalarda insonlar oldida turgan mukammal va nihoyatda yuqori o‘rinda turuvchi amaldagi jarayonlar

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild.- T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2023. -B.128.

hisoblanadi”². “Ijtimoiy mas’uliyat” tushunchasiga professor A.Saidqosimov: “Ijtimoiy mas’uliyat deganda, aholining jamiyatda olib borilayotgan islohotlar jarayonida mas’uliyat, fidoyilik, jonbozlik ko‘rsatishi va ko‘tarinki ruhda ishtirok etishi tushuniladi. Bu fuqarolarning davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlashda va ularni amaliyotga joriy etishda chuqur mas’uliyat bilan qatnashishida yaqqol ko‘zga tashlanadi”³ - degan ta’rif va tavsiflagan. Mantiqan olib qaraganda “ijtimoiy mas’uliyat” tushunchasi, “fuqarolik mas’uliyati”, “ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyat” kabi bir qator tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyat – bu insonga jamiyat tomonidan yuklatilgan vazifalarni umuminsoniy va milliy ma’naviy qadriyatlar talablariga tayangan holda inson, elat, millat va xalqlarning tinch-osuda yashashlarini ta’minlashga qaratilgan hatti-harakatidir. Bu mas’uliyat Yangi O‘zbekistonni barpo etishda yoshlarning ona-Vatan, xalqimiz manfaati, mamlakatimizning kelgusidagi taqdiri uchun fidoyilik bilan xizmat qilishi, jamiyat hayotining barcha sohaları taraqqiyoti uchun kamarbasta bo‘lishi, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarda faol qatnashishi, davlat va jamiyatning muhim masalalarini hal qilishda munosib ishtirok etishi, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga ko‘mak berishidir, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati tug‘risida” gi qonunda yoshlar, ularda ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyatini yuksaltirish masalalariga katta e’tibor berilgan bo‘lib, unning 3-moddasida: “yoshlar (yosh fuqarolar) – o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslardir”⁴, -degan rasmiy ta’rif berilgan. 5-moddasida esa mutassadilarga: “.....yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash”⁵ vazifalar yuklatilgan.

² Нўмонова Д.У. Ўзбекистон замонавий маънавий-маданий тараққиётида аёллар масъулиятини оширишнинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. 09.00.04-Ижтимоий фалсафа. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Самарқанд 2020. 14 бет.

³ Очилова Б., Саитқосимов А., Назарқосимов С. Фуқаролик жамияти социал механизми ва асослари. Ўқув ўлланма. Тошкент, “Тафаккур” нашриёти, 2021 йил, 296-297 бетлар.

⁴ Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14.09.да қабул қилинган ЎРҚ-406-сонли” Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида” номли қонуни// <https://www.Lex.uz/acts/3026446>.

⁵ Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14.09.да қабул қилинган ЎРҚ-406-сонли” Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида” номли қонуни// <https://www.Lex.uz/acts/3026446>.

Zero, shunday ekan, mamlakatimiz yoshlarining ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyatini shakllantirish va rivojlantirish Yangi O‘zbekistonni barpo etishda jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, ona-Vatanimizning salohiyatini yuqori darajaga ko’tarishning ma’naviy asoslaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun bu borada bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni:

- bugungi kunda inson qalbini egallashga qaratilgan salbiy g‘oyaviy jarayonlarning mavjudligini, ularning yoshlarda loqaydlik, ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan bosh tortishga undashga yo‘naltirilganligini hisobga olib, jamiyatda siyosiy targ‘ibot ishlari uzluksizligini ta’minlash;

- yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy institutlarda, ayniqsa, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalardagi ishtirokini kengaytirish, siyosiy ishtirok orqali yoshlarning jamiyat jarayonlariga ongli ravishda ijtimoiylashuvi jarayonini tashkil etish;

- yoshlarni jamiyatda «demokratiya darsxonalari» hisoblangan o‘zini o‘zi boshqarish organlaridagi ishtiroki orqali jamiyatda jamoatchilik nazoratini tashkillashtirishning samarali mexanizmlarini yaratish, bu jarayonda oqsoqollar, kekca avlod tajribalariga suyanish;

- yoshlarning bevosita demokratiya jarayonlarida ya’ni jamiyat va davlat hayotining muhim masalalari hisoblangan saylovlar va referendumlarda faol va ongli ravishda ishtirokini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- jamiyatda plyuralizm, fikrlar xilma-xilligi, siyosiy hayotning rang-barangligi, mafkuraviy jarayonlarda ilg‘or g‘oyalarning mavjud bo‘lishi kabi jarayonlarni tashkil etish va bu voqelikda yoshlar jamiyat jarayonlarini tashkil etuvchi siyosiy kuch sifatida namoyon bo‘lishiga erishish;

- jamiyatda yoshlarning ijtimoiy va siyosiy tashabbuskorligini oshirish, davlat va jamoat tashkilotlarida faol qatnashishi orqali jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda hal qiluvchi kuch sifatida ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- yoshlar ongida demokratik qadriyatlarni vujudga keltirishda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish, OAVlarini siyosiy targ‘ibotning eng samarali va jiddiy mexanizmi sifatida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini kengaytirishdagi rolini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Zero, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev aytganidek:” Biz yoshlarimizda umrimizning ma’no-mazmuni, hayotimizning asosiy mavasi va samarasini ko‘ramiz. Yangi O‘zbekistonni azmu shijoatli yoshlarimiz bilan birga bunyod etamiz”⁶.

⁶ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент”Ўзбекистон”, 2022. – Б.257.